

Shoshilinch yordam usullari

404 DI talabasi Mirzokarimov Davlat

Tez tibbiy yordam

Tez tibbiy yordam - inson hayoti hamda sog'lig'i uchun xavfli holatlar ro'y berganda kechasiyu kunduzi shifohonagacha ko'rsatiladigan tibbiy yordam turi va tizimi. Ilk bor Tez tibbiy yordamyo. 1918 y. Toshkent shahrida punkt sifatida tashkil etilib, 1926 y. mustaqil Tez tibbiy yordamyo. stansiyasiga, 1974 y. Tez tibbiy yordamyo. klinik kasalxonasi bilan birlashtirilib, bo'limga aylantirildi. 1983 y. kasalxonadan ajratilib, mustaqil shahar tez va shoshilinch tibbiy yordam stansiyasi deb ataldi.

**O‘zbekiston Respublikasi Farmoni bilan №PF-2107
10.11.1998y. Shoshilinch Tibbiy Yordam Hizmati ta'sis etilib
2001 yildan shoshilinch tibbiy yordam va tez tibbiy yordam
tushunchalari ikki xil ma'noga ega.**

- Shoshilinch Tibbiy Yordam Hizmati ta'sis etilib 2001 yildan shoshilinch tibbiy yordam va tez tibbiy yordam tushunchalari ikki xil ma'noga ega.

- Tez tibbiy yordamyo. ning vazifasi hodisa yuz bergen joyda, uyda, bemorni kasalxonaga olib keta turib shoshilinch, shu jumladan mutaxassis vrach tomonidan yordam ko‘rsatish, lozim bo‘lsa, bemorlarni kasalxonaga yetkazishni ta’minlashdan iborat.

Birinchi yordam uch xil tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi:

- 1) tashki shikastlovchi omillar (elektr toki, bosib qolgan og‘ir narsa va boshqalar) ta’sirini darhol bartaraf etish yoki shikastlangan kishini noqulay sharoitdan xoli qilish (suvdan, o‘t tushgan joydan olib chiqish va boshqalar); 2) shikastlanish tarziga qarab Birinchi yordam ko‘rsatish (bular haqida q. Suyak chiqishi, Suyak sinishi, Zaharlanish, Hushdan ketish, Jarohatlanish, Kuyish va b.); 3) yaqin atrofdagi kasalxona, poliklinikaga yetkazish. Odam to‘satdan betob bo‘lib qolganida, turli xil baxtsiz hodisalar ro‘y bergenida, albatta tez yordam chakirish, noiloj qolgan hollarda duch kelgan transportda davolash muassasasiga olib borish zarur.
- To‘g‘ri Birinchi yordam ko‘rsatish uchun doim tegishli bilim va malakani oshirib borish lozim. Ishxona, avtomashina va uydagi dori kugichada Birinchi yordam uchun zarur bo‘lgan hamma narsalar bo‘lishi kerak.

- BIRLAMCHI MEDIKO-SANITAR YORDAM
- Birlamchi mediko-sanitar yordam (BMSY) tibbiy yordam ko'rsatish tizimining asosi hisoblanadi. U o'z ichiga aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sanitariya-gigiena qoidalaridan xabardor qilish, kasallik va holatlarni tashxislash, davolash va oldini olish, tibbiy reabilitatsiya, homiladorlikning kechishini kuzatib borish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. U quyidagi turlariga bo'linadi:

- Shifokorgacha birlamchi mediko-sanitar yordam;
- Birlamchi shifokorli mediko-sanitar yordam;
- Birlamchi ixtisoslashtirilgan mediko-sanitar yor

- SHIFOKORGACHA YORDAM
- Shifokorgacha (yoki shifokorgacha birlamchi mediko-sanitar yordam yoki feldsher yordami) — feldsher tomonidan ko’rsatiladi, shifokorgacha birlamchi yordamni esa hamshira, farmasevt, tish texnigi, akusher, ya’ni o’rta-maxsus ta’limi bo’lgan shaxs ham o’tkaza oladi. Bu yordam turi uyda yoki tibbiy muassasadan tashqarida, ambulatoriya sharoitida o’tkaziladi.

TEZ TIBBIY YORDAM

- «Tez», shu jumladan ixtisoslashtirilgan, tibbiy yordam fuqarolarga shoshilinch tibbiy aralashuvini talab qiladigan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, jarohatlar, zaharlanish va boshqa sharoitlarda ko'rsatiladi.

- Tez, shu jumladan ixtisoslashtirilgan tez tibbiy yordam fuqarolarga davlat va shahar sog'liqni saqlash tizimlarining tibbiy muassasalari tomonidan bepul taqdim etiladi. Tez, shu jumladan ixtisoslashtirilgan tez tibbiy yordam favqulotda yoki shoshilinch yordam ko'rsatish kerak bo'lган hollarda tashkilot tashqarisida, shuningdek, ambulatoriya va statsionar sharoitida ko'rsatilishi mumkin.

- Jarohdtlanganlarga birinchi yordam ko`rsatishdan oldin qo`yidagi ishlarni bajarish lozim: y jarohatlanish sabablarini yo`qotish (masalan, jarohatlanuvchini gazlar, zaharlar to`lgan xonadan olib chiqish); elektr simini olish (elektr toki urganida; jarohatlanuvchining ahvolini yomonlashtiradigan barcha narsalarni yo`qotish (jarohatlanuvchi ustidagi yukni, devor parchalarini olish, xonadan yoki yonayotgan joydan olib chiqish); y jarohatlanuvchining umumiyligi ahvolini aniqlash va birinchi navbatda odam hayoti va salomatligiga eng ko`p xavf tug`dirayotgan narsani yo`qotish (masalan, arteriyalar kesilganida qon oqishini to`xtatish, nafas olish to`xtab qolgan va yurak faoliyati buzilgan bo`lsa, sun'iy nafas oldirishni yoki yurakni uqalashni boshlash va h.k.); y agar bemorga xavf tug`ilmaydigan

**ETIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT**

